

KONSTITUTSIYA - SHAXSIY HUQUQLAR KAFOLATI.**Omirbaeva Aygul Kengesbay qizi**

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi
va agrotexnologiyalar instituti Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash va suv xo'jaligi fakultetining
Yurisprudenciya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: ushbu maqolada, konstitutsiyaning vujudga kelish tarixi, hozirgi davrgacha bo'lgan ko'rinishlari, ilmiy-nazariy qarashlar, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga shaxsiy huquqlar deb nomlanuvchi bobga kiritilgan o'zgartishlar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, Rim huquqi, AQSH konstitutsiyasi, shaxsiy huquqlar, shaxs, jamiyat, davlat, xalq, huquq

Аннотация: в данной статье представлена информация об истории возникновения конституции, ее проявлениях до настоящего времени, научно-теоретических взглядах, изменениях, внесенных в главу о личных правах в новой редакции Конституции Республики Узбекистан.

Ключевые слова: конституция, римское право, конституция США, личные права, личность, общество, государство, народ, право

Abstract: This article presents information on the history of the constitution's emergence, its manifestations to the present day, scientific and theoretical views, and the amendments made to the chapter on personal rights in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: constitution, Roman law, US constitution, personal rights, individual, society, state, people, law

Konstitutsiya odatda davlatning asosiy qonuni: hokimiyat organlari tuzilishi, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquqlari va konstitutsiyaviy tartibni belgilovchi hujjatdir. Bu g'oya qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan desa bo'ladi[1]. Zamonaviy yozma konstitutsiyalar esa turli tarixiy jarayonlarning - qadimgi huquqiy

to'plamlar, o'rta asr shartnomalari va yangi davr siyosiy-ijtimoiy inqiloblarining mahsulidir.

Konstitutsiya g'oyasi birdan shakllanmagan, balki insoniyat taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlarda rivojlangan. Aristotel o'zining "Siyosat" asarida davlat tuzilishi va boshqaruv shakllarini tahlil qilib, "politeya" tushunchasini qo'llagan. Bu tushuncha keyinchalik "konstitutsiya"ga yaqin ma'noda qo'llanila boshlangan. Aristotel "siyosat" asarida Konstitutsiya siyosatning davlat tuzilishi sifatida so'z yuritadi. Shu bilan birga, u ushbu tushunchani turli aspektlarda qo'llaydi. U o'z davrining yunon siyosatidagi ijtimoiy-siyosiy tartiblarning turli qarashlarini o'rganib chiqdi va nisbatan yaxshi Konstitutsiyani aniqlashga harakat qildi.

Polibiy "umumiy tarixda "Konstitutsiyaning aralash modeli"ni Rimga, shu jumladan "nazorat va muvozanat" g'oyasini kengaytirdi, shuningdek rivojlantirdi[2]. Ushbu boshqaruv tizimi tufayli Rim butun qadimgi dunyoni egalladi. chunki bu tizim barqarorlik va moslashuvchanlikka ega edi. Aristotel nazariyasi asosida Polibiy o'zining boshqaruv shakllari tipologiyasini yaratdi. Konstitutsiyalarning sof shakllarining zaif tomonlaridan qochish uchun (boshqaruv shakllari: tsar-zulm; aristokratiya - oligarxiya; demokratiya) u "Konstitutsiya shakllarining aylanishi" modelini yaratish uchun taklif qildi.

Rim davlatida constitutio atamasi imperator farmonlari va huquqiy qarorlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Rim huquqi, ayniqsa 12 ta jadval qonunlari va keyinchalik imperator Yustinian davridagi Corpus Juris Civilis, huquqiy tizimlarni kodifikatsiyalash orqali zamonaviy konstitutsiyaviy g'oyalarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Demak, konstitutsiya g'oyasining eng qadimiy ildizlari falsafiy va huquqiy tafakkur bilan bog'liq.

Magna Carta (1215, Angliya) - Yevropa huquqiy tarixida eng muhim hujjatlardan biri[3]. U shoh hokimiyatini cheklab, baronlar va cherkov erkinliklarini himoya qilgan. Shu orqali "davlat hokimiyati qonun bilan cheklanadi" degan tamoyil mustahkamlandi. Zamonaviy konstitutsionizmning keyingi rivoji XIII asr oxirida yuzaga keldi, Tomas Akvinskiy (1225-1274) garchi u monarxiyani eng yaxshi

boshqaruv timsoli sifatida e'tirof etgan bo'lsa-da, biroq ichki tinchlik va barqarorlik uchun aristokratiya va xalq monarxni asosan qonun ijodkorligi jarayoni asosida tanlashi kerak deb hisoblagan. Keyinchalik Angliyada Habeas Corpus Act (1679) va Bill of Rights (1689) hujjatlari qabul qilinib, shaxsiy erkinlik, qonuniy sud himoyasi va parlament ustuvorligi tamoyillari shakllandi. Bular zamonaviy konstitutsiyalarning muhim g'oyaviy manbai bo'lib xizmat qildi.

Yangi davr falsafiy oqimlari va ijtimoiy shartnoma nazariyasi XVII-XVIII asrlarda mutafakkirlarning asarlari konstitutsiyaga ilmiy-nazariy asos yaratdi:

Jon Lokk insonning tabiiy huquqlari (hayot, erkinlik, mulk) davlat tomonidan emas, balki tug'ma huquq ekanligini ta'kidlagan.

Sharl Monteske hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'lish g'oyasini ilgari surdi. Bu zamonaviy konstitutsiyalarning asosiy tamoyiliga aylandi. Jan-Jak Russo - xalq suvereniteti va ijtimoiy shartnoma g'oyasini rivojlantirdi. Uning fikricha, hokimiyat xalq irodasiga asoslanishi kerak. Bu g'oyalar yozma konstitutsiyalarning yaratilishida bevosita nazariy manba bo'ldi. AQSH Konstitutsiyasi[4] (1787) tarixda birinchi yozma milliy konstitutsiya sifatida davlat tuzilishi, federatsiya va hokimiyat bo'linishini huquqiy asosda mustahkamladi. Fransiya Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789) - erkinlik, tenglik, adolat va xalq suvereniteti tamoyillarini huquqiy hujjat darajasiga ko'tardi. Polsha 3-may Konstitutsiyasi (1791) - Yevropadagi birinchi yozma konstitutsiya bo'lib, monarxiya hokimiyatini cheklash va parlament vakolatini kuchaytirishga qaratilgan edi. Bu hujjatlar butun dunyoda konstitutsiyaviy huquqiy tizimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Konstitutsiya - nafaqat davlatning asosiy qonuni, balki insoniyat tafakkuri, siyosiy kurashlari va huquqiy tajribasining tarixiy mahsulidir. Bugungi kunda har bir davlatning konstitutsiyasi uning tarixiy tajribasi, siyosiy madaniyati va huquqiy qadriyatlari majmui sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 1992-yildan buyon jami 15 marta o'zgartirishlar kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgartirishlar ko'lami kattaligi sababli hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanishlar natijasida, bosh qomusimizdagi

moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, konstitutsiya 65 foizga yangilandi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Yangi konstitutsiyamizda shaxsiy huquq va erkinliklarimiz uchun muhim bo'lgan normalar qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, mamlakatimiz qonunchiligida o'lim jazosining taqiqlanishi konstitutsiyaviy norma darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin, shuningdek, hech kimda o'zining ruxsatisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emasligi, agar shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi shartligi, barcha noaniqliklar - inson foydasiga hal etilishi, ya'ni "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi." Bundan buyon, qonunchilikda noaniqliklar yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal bo'lishi, shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'la olmasligi, hech kim bir jinoyat uchun qayta sudlanishi mumkin emasligi kabi yangi normalarni ko'rishimiz mumkin. Bundan shuni sezishimiz mumkinki, mamlakatimizning yangi konstitutsiyasi xalqchil konstitutsiya, xalqning haq-huquqlari eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganining yorqin dalili, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yakunlab aytganda, konstitutsiya huquqiy tizimning markaziy manbai sifatida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga soluvchi fundamental hujjat hisoblanadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlab, davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va ularning o'zaro munosabatlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy davlatchiligimiz rivojida eng muhim bosqich hisoblanib, demokratik tamoyil, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy muhim poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Siyosat ("Politics"). Qadimgi Yunoniston, miloddan avvalgi IV asr.

2. Как отмечали советские исследователи конституционализма, смешанная модель правления «является теоретической конструкцией политической формы властвования вообще». См.: История буржуазного конституционализма XVII—XVIII вв. / под редакцией В. С. Нерсесянца, В. Г. Каленко, П. С. Грацианского. М., 1983. С. 25 и след.
3. Magna Charta Libertatum (“Buyuk Erkinliklar Xartiyasi”). Angliya, 1215 yil.
4. The Constitution of the United States of America. 1787-yil, Filadelfiya.